



“NAVRO’Z” BAYRAMI BILAN BOG’LIQ AN’ANALARNING TARIXIY MANBALARDA YORITILISHI

Elova Dilnoza Davlatovna

Buxoro davlat universtiteti “Arxeologiya va Buxoro tarixi” kafedrasida katta o’qituvchisi,
t.f.f.d., (PhD)

G’aybullayeva Zarina Zohir qizi

BuxDU, “Arxeologiya va Buxoro tarixi” kafedrasida etnografiya, etnologiya va antropologiya
ta’lim yo’nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Navro’z” bayrami bilan bog’liq xalq an’analarning Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Umar Xayyomning “Navro’znoma” asarlari orqali ilmiy jihatdan tahlili yuritilgan. Qadimgi Navro’z bayramining bugungi kunga kelib ayrim xalqlar tomonidan nishonlanib kelishi, uning an’analari hozir ham kundalik hayotimizda qo’llanilishi bilan bog’liq jihatlar ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Abu Rayhon Beruniy, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Umar Xayyom, “Navro’znoma”, Navro’z bayrami, farvardin moh, “Katta Navro’z”, “Umid kuni”, “xaftsin”.

Fasllar ichida eng fusunkori bahor hisoblansa, bayramlar ichida eng betakrori Navro’zdir. Navro’z bir necha ming yillardan buyon Sharq xalqlari orasida saqlanib kelayotgan bayram bo’lib, u asli dehqonchilik taqvimini bilan bog’liq. 20-21 mart kunlari kun va tun tenglashib, shu davrdan boshlab butun tabiat uyg’ona boshlaydi.

Navro’z bayramini barcha fors, arab, turkiy tillarda so’zlashuvchi xalqlar har yili bahorda nishonlab kelishgan. Bu qadimiy bayram haqida Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida, Mahmud Qoshg’ariy esa “Devono lug’otit turk” asarida juda qiziqarli ma’lumotlar yozib qoldirganlar. Umar Xayyom olim, faylasuf, shoir sifatida bu bayram haqida maxsus “Navro’znoma” asarini yozib qoldirganlar. O’rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy o’z asarida navro’z to’g’risida gapirib bunday yozadi: “Navro’z farvardin moh oyining hamda yilning birinchi kuni bo’lib, uning forscha nomi ham shu ma’noni taqozo etadi. Navro’z eronliklar zizlari bo’yicha o’tmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarda Quyoshning saraton burjiga kirish paytiga to’g’ri kelar edi. So’ngra u orqaga surilgach bahorda keladigan bo’ldi. Endi u bahor yomg’irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha va o’simlik unib chiqqa boshlaguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro’z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan”¹.

Umar Xayyom “Navro’znoma” asarida afsonaviy Jamshid podshoh Navro’z bayramini nishonlashni odatga aylantirganini, birinchi Ajam podshosi Qayumars podshoh bo’lgandan keyin yilning kunlari va oylariga nom berishga hamda odamlar bilsin deb yilnoma joriy qilishga qaror qilgani haqida qiziqarli ma’lumotlarni qayd etib ketgan². Qayumars haqida Beruniy ham o’z asarida to’xtalib, uni forslar yerning birinchi insoni deb hisoblashgani, “Girshoh” ya’ni “tog’

¹ Abu Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Ўзбекистон»2020 –Б. 239

² Умар Хайём. Наврўзнама. Т. “Меҳнат”, 1990.- Б.12



podshohi” laqabi borligi va boshqa bir qancha afsonaviy ma’lumotlar bergan. Forslarda Navro’zning birinchi bor nishonlanishi ham Qayumars bilan bog’liqligi haqida ma’lumotlar har ikkala asarda ham mavjud bo’lib, bundan Qayumars haqidagi afsona uzoq yillar davomida xalqlar xotirasida saqlanganligini xulosa qilishimiz mumkin.

Ushbu asarlarda Navro’zning tabiat qonunlarilariga muvofiq tomoni qayd qilinibgina qolmay, u bilan bog’liq turli irim, urf-odat va marosimlar to’g’risida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, Beruniyning ta’rificha, afsungarlar Navro’z kuni tong atganda birov gapirishdan oldin uch qoshiq asal yalab, uch bo’lak (xushbo’y) mum tutatsa, bu ko’p kasalliklarga shifo bo’larmish. Yoki shu kunning tongida bir so’z aytishdan oldin shakar totib, o’ziga zaytun yog’i surtgan kishidan yil bo’yi turli balolar daf etiladi, degan irimlar bo’lgan. Bayram urf-odat, marosimlari haqida so’zlab esa alloma shunday yozadi: “Eronliklarda Navro’z kuni bir-birlariga shakar hadya qilish rasm bo’lgan edi. Bag’dod mubadi Ozarbodning hikoya qilishicha, buning sababi, Navro’z kuni Jamshid mamlakatida shakarqamish paydo bo’lgan...”, “Odamlar shu kuni tong yorishgan paytda o’rinlaridan turib anhor va hovuzlarga boradilar. Ko’pincha oqib turgan suvlardan idishlarda suv olib, barakatli bo’lish va ofatlarni daf etish uchun ustlaridan suv quyadilar” yoki “Shu kuni odamlar bir-birlariga suv sepishadi...” kabilardir.

Qadimgi O’rta Osiyo va Eronda Navro’z nafaqat xalq, balki davlat bayrami sifatida ham nishonlangan. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida keltirishicha, odamlarni tabaqalarga bo’lib, Navro’z bayramini bir oyga cho’zib, har besh kunni bir tabaqaga taalluqli deb hisoblaganlar. Jumladan, forslarda birinchi besh kunlik podshohlarniki, ikkinchisi ulug’ kishilar ya’ni yuqori tabaqa vakillari bo’lgan zoganlar uchun, uchinchi besh kunlik podshohlarning g’ulomlari ya’ni haybiylari uchun, to’rtinchisi xizmatkorlari uchun, beshinchisi xalq ommasi, oltinchisi uchun esa cho’ponlar uchun bo’lgan. Podsho Navro’zining besh kunligida shoh bayramni boshlab bergan va fuqarolarga muloqotda bo’lishni hamda muruvvat qilishni e’lon qilgan. Ikkinchi kuni martabasi juda yuqori kishilar ya’ni dehqonlar va mashhur xonadon ahllarini qabul qilgan. Uchinchi kuni otliqlar va oliy ruhoniy (mubad) larni, to’rtinchi kuni o’z uyidagilar, yaqin va maxsus kishilarni, beshinchi kun esa o’z o’g’illarlarini hamda qaramog’idagi kishilar ya’ni fuqarolarini qabul qilgan. Oltinchi kun ulug’ bayram hisoblanib, unga “Katta Navro’z” nomi berilgan. Bu kunni forslar “Umid kuni”¹ deb hisoblashgan. Xorazmliklar va sug’diyarlarda sosoniy hukmronligi davrida Navro’z bilan birga bir necha xalq bayramlari davlat bayrami deb e’lon qilingan.

Beruniy asarlarida, Umar Xayyomning “Navro’znoma”sida va boshqa manbalarda, ilk bahor bayramini nishonlaganda yerga suv quyish yoki sepish, sovg’a-salomlar hadya qilish arg’imchoqlarda uchish shirinlik (qandolat) tarqatish, tahorat qilish va yomg’ir suviga cho’milish kabi urf-odat, udumlar to’g’risida xabar beriladi. Navro’z kuni podshoh dasturxoniga turlicha dondan- bug’doy, arpa, tariq, makka, no’xat, yasmiq, guruch, kunjut yoki loviya unidan pishirilgan non qo’yilgan. Dasturxon o’rtasiga turli xil daraxt (tol, Zytun, behi, anor va boshqa) lardan yeti novda, yeti oq kosa va oq dirham, yangi dinor ham qo’yilgan. Podshoga oq qand va kokos yong’og’idan maxsus taom berganlar, u taomni yangi sog’ilib, xurmo qo’shilgan sut bilan iste’mol qilgan. Hozirgacha Eronda Navro’z dasturxoniga marosimga binoan yeti xil (xaftsin) “S” harfi bilan boshlanadigan narsalar tortiladi. Shu bilan birga qatiq, sut, qurt va bo’yalgan tuxum, meva, yong’oq, bodom va hokazolar qo’yiladi. Bu odat Tojikistonda ham mavjud[2].

Navro’z bayrami kata ommaviy sayllar, xalq o’yinlari, musobaqalar, sozanda va raqqoslar, masqaraboz va dorbozlar ishtirokida o’tadi. Umar Xayyom bergan ma’lumotlarga asoslanib, shuni ta’kidlash mumkinki, 26 asrdan buyon nishonlanib kelayotgan Navro’z bayrami

¹ Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Ўзбекистон»2020 –Б. 242



boshlanishi bilan o'zaro urushlar to'xtatilgan, yarashish shartnomalari bitilgan, hatto dafn marosimlari boshqa kunga ko'chirilgan. Bu bayram shunchalik ehtiromli, quvonchli va shodlik kunlari sifatida katta tantanalar bilan nishonlanibgina qolmay, uzoq-yaqin qavmu qarindosh va do'stlarni yo'qlash, kasallar holidan xabar olish, marhumlar qabrini ziyorat qilish, do'stlararo sadoqatlikni bildirib, inson qadrini e'zozlash kabi amallarga amal qilingan.

Bugungi kunda turkiy xalqlardan biri bo'lgan ozarbayjonliklarda ham bayramning dastlabki urf – odatlari saqlanib qolingan bo'lib, u yerda Navro'z xuddi forslarga o'xshab bir oy tayyorgarlik va bayram sifatida o'tadi. Gulxan yoqilib ustidan yeti marta sakrash, odamlar suv havzalariga borib yuz-qo'llarini yuvib, bir-birlariga suv sepish saqlanib qolgan. So'ngra an'anaga ko'ra, ular bir-birlariga shirinlik ulashadi. Shu kuni ertalabdan shirinlik tanovul qilib, xush iforlardan hidlash ham an'anaga kirgan¹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абу Райхон Беруний. Кадимги халклардан колган ёдгорликлар – Тошкент “O'zbekiston” 2020
2. Умар Хайём. Наврузнома – Тошкент «Мехнат» 1990
3. Исо Жабборов. Узбеклар (Анъанавий хужалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти) – Тошкент «Шарк» 2008
4. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari – Toshkent “Cho'lpon” 2007.
5. Халқ сўзи газетаси 2022 йил 17 март № 56

¹ Халқ сўзи газетаси 2022 йил 17 март № 56